

O'ZBEK VA ARAB TILLARI LINGVAMADANIYATSHUNOSLIGIDA ALLA KATEGORIYASI

Xusanova Soliha Mo'minjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

khusanovasoliha08@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab va o'zbek xalqlari madaniyatida yorqin o'rin egallaydigan alla lisoniy va madaniy tomondan taqqoslangan. Olib borilgan ishlar natijasida, bu ikki xalq o'rtadasidagi farq va o'xshashliklar ularning madaniy boyliklaridan biri bo'lgan alla qo'shig'i orqali ham namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tildi. Tadqiqot ishining maqsadi alla kategoriyasidagi xalqlar tomonidan tanlagan so'zlarning ularning turmush tarzi va madaniyatiga qanchalik bog'langanini ham xususiy, ham qiyosiy tomondan izohlab berish.

Kalit so'zlar: alla, nāmi (نامي), tinchlantiruvchi so'zlar, arab va o'zbek madaniyati, folklore.

Alla dunyo xalq og'zaki ijodida eng birinchi eshitiladigan qo'shiqdir. U go'daklarga ularning onasi, buvisi yoki boshqa ayol obrazi tomonidan mayin ohang va past ovoz bilan kuylanadi. Uning asosiy maqsadi bolani uyquga ketkazish bo'lib, unda bola kelajagi uchun qo'yilgan orzu-umidlar, kuylovchining alam-nolalari izhor etiladi.

“Alla” so'zining o'z etimologiyasiga nazar tashlasak, turli xil qarashlarga duch kelamiz. Xalq orasida “alla” so'zi “Alloh” ismidan, go'dak qulog'iga “Alloh” ismini singdirish uchun shunday aytilgan degan qarash bo'lsa, Shavkat Rahmatullayevning “O'zbek tilining etimologik lug'ati”da: “Bu ot qadimgi turkiy tildagi “tinchlantiruvchi” ma'nosini bildirgan ala (ala-ala) undov so'zidan o'sib chiqqan; o'zbek tilida “a” unlilari “ä” unlilariga almashgan, “l” undoshi qatlangan: ala-ala > alla > ällä” degan fikr keltirilgan. Darvoqea, “Devon-u lug'otit-turk”da “ala” so'zi bor va shunday izohlangan: “ala – sekin, shoshilmay; ala-ala deydilar. Sekin-sekin, asta-asta. Bu so'zga “k”, “l” qo'shib ola kel ham deyiladi”. Arablarning an'anaviy allasida kelsak: “yalla binam”, ya'ni “qani, uxla” so'zlari bilan boshlanadi. Ammo undagi “yalla” so'zi arabcha “yo Allah” ma'nosidagi iborasidanmi yoki “kecha”, “kech bo'ldi” ma'nosida arabcha “layl” so'zidan yasalganmi, bu bizga qorong'i.

Endi bu folklyor qo'shig'ini o'zini o'rgansak uning so'zlari dialektik, toponimik yoki ijtimoiy vaziyatdan farq qilsa ham, undagi asosiy ma'no va tilaklar o'xshashligi bu ikki xalqning, qaysi bir ma'noda, uyg'unligini ko'rsatib beradi. Misol keltiradigan bo'lsak:

Shabada esar sekingina,
Alla-yo, alla,
Gullar uxlar bog' ichida,
Alla-yo, alla,
Oy osmonda kulib qarar,
Alla-yo, alla,
Yulduzlar ham ko'zini qisar,
Alla-yo, alla,
Men yoningda, qo'rqma aslo,
Alla-yo, alla,
Tinch uxlagin, bolam, asta

Uxla, azizim, uxla,
Yuqoridagi oy seni himoya qiladi,
Yulduzlar tuningda tabassum qiladi,
Yumshoq hikoyalarni pichirlab,
Va men, sening yoningda, jonim,
Seni cheksiz himoya qilaman

(نامي يا عيني نامي)

والقمر فوقك حامي

والنجم يضحك في ليلك

وأنا جنبك يا روعي

(أحرسك طول المدى)

Yuqorida keltirilgan allalardan ko'rinib turibiki ikki xalq og'zaki ijodida *yulduz-najm* (النجم), *oy-qamar* (القمر), kabi tabiat obrazlari faol ishtirok etadi. Bunday qiyoslash aslida o'sha obrazlarga bo'lgan samimiy munosabat zamirida tabiiylik kasb etgan. Balki shu sababli "Ona tabiat", "Oy momo" kabi obrazlar bolalar uchun yoshlikdan ijobiy taassurot qoldirar.

Bundan tashqari, har ikkala xalqda ham "*Men yoningda, qo'rqma aslo*"- "*Himoya qilaman* (حرسك)" kabi misralar orqali ona obrazining jonkuyar, bolasini yaxshi ko'ruvchi va uni himoya qilish uchun har qanday sinovga tayyor tabiati ko'rsatib berilgan. Tarix sahifalariga nazar tashlasak, urushlar va og'ir sinovlar davrida ham onalar jon kuyarligining yorqin namunalarini ko'ramiz. Ular o'z farzandlarini asrab-avaylash, ularga ilm va tarbiya berish uchun bor kuchini sarflagan. Hatto eng og'ir ocharchilik yoki urush yillarida ham ona mehrining kuchi farzandlarga umid va yashashga ishonch bag'ishlagan. Bundan bilsak bo'ladiki, bu ikki xalqda onalik timsoli ham xuddi shunday sifatlardan mustasno emas.

O'zbek va arab xalq allalaridagi ba'zi o'xshashliklarga qaramasdan, xalq og'zaki ijodida aynan ma'lum bir xalqqa tanish bo'lgan tushuncha yoki tafovutlar bo'lishi tabiiy. Masalan arab xalqlarining ba'zi an'anaviy allalarida "*Ertaga otang uyga qaytadi. U sotgan limondan tushgan pul bilan* (غداً سيعود والدك إلى المنزل، ومعه المال الذي ربحه من بيع (الليمون))" kabi qatorlarni bizning "*Hozir dadang keladi, alla, Olma olib keladi, alla*" parchamiz bilan solishtirsa bo'ladi. Arab tilidagi parcha orqali qadimgi arab yarim orolida asosan rivojlangan tijoratni, u paytlarda O'rta Osiyo xalqlariga yot bo'lgan limonni ko'rsak, o'zbek allasida yurtimizga xos bo'lgan dehqonchilik va olmaning tasvirini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari milliy allalarimizning boshqa turlarida beshik, do'ppi kabi arab xalqlariga uncha yaqin bo'lmagan so'zlarning ham guvohi bo'lamiz.

Xalq folklorida katta o'ringa ega bo'lgan allaning eng asosiy maqsadi go'daklar uchun sog'liq, baxt, buyuk kelajak tilashdir. Onaning farzandi uchun tilaklari millatlararo o'xshash bo'lsada, M Alaviya aytganday "Alla, asosan, to'rtlikdan tashkil topgan bo'lsa ham, ba'zi allalovchi to'lqinlanib ketsa davom ettirib, boshqa misralarni ham qo'shib yuboradi va bir-biriga yaqin to'rtliklarni aytib, bu bilan o'zining tilak, armonini izhor etadi". Ya'ni alla oxir-oqibat alla aytuvchining hayoti va tafakkuriga borib sayqallanadi va shu sababli ham u go'zal va boshqalarga o'xshamas bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Rahmonov. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-j. Toshkent, 2000, 600 b.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Devon-u lug'otit-turk- Toshkent, 1960, 1500 b
3. O. Safarov. Alla-yo alla. Toshkent, 1999, 140 b.
4. Аллавия М. Узбек Халк Маросим Кушиклари. Тошкент: -Фан 1974 132 б
5. Abduvohid Hayit. "Jadid" Gazetasi. 2024, 13-son